

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SOG‘LOM TURMUSH TARZI JISMONIY MADANIYATINI SPORT PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ubaydullayev Raximjon Murodilovich

Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida o‘qituvchisi,

Farg‘ona davlat universiteti

tel: +99891 660-66-61

Email: ubaydullayevrahimjon259@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash; bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik usullarini aniqlash, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini amaliyot orqali shakllantirish yo‘llarining samaradorligini tekshirish, ilmiy-amaliy tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etish vazifalari belgilangan.

Kalit so‘z: Pedagogik kompetensiya, pedagogik mahorat, kasbiy faoliyati, intellektual rivojlanganlik darajasi, kasbiy tafakkuri, odobi, imidji, muloqot ko‘nikmalari, muloqot madaniyati.

KIRISH

O‘zbekistonda ommaviy sportga erishish, keng geografik hududda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va targ‘ib qilish bilan birga, sohada yuksak marralarni qo‘lga kiritish, jahonga mashhur sportchilarni tayyorlash bo‘yicha tegishli muassasalar oldiga aniq vazifalar qo‘yildi. Bu yerda professional sport bilan shug‘ullanish, bu sohada jiddiy muvaffaqiyatlarga erishish kabi yanada aniq maqsadlar belgilab olindi. Bu ayni paytda nufuzli xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafini himoya qilayotgan, g‘oliblikni qo‘lga kiritib, madhiyamizni yangrayotgan sportchilarning naqadar sharafli ish tutishini ko‘rsatadi. Bu fakt sport har bir davlat uchun eng muhim strategik yo‘nalishlardan biri ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi. Shu bois keyingi paytlarda mamlakatimizda sportni rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Bu sohada juda jiddiy yutuqlarga erishildi. Mamlakatimiztarg‘ibotida sportchilar katta rol o‘ynay boshladi. Bayrog‘imizni baland ko‘tarib, madhiyamizni ijro etish har bir millat uchun faxr va iftixordir. Shuningdek, eng nufuzli musobaqalar natijasida mamlakatimizga ko‘plab oltin, kumush va bronza medallari keltirilishi, chempionlarimiz safi yildan-yilga ortib borayotgani sportning g‘oyat sharafli soha ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Shu munosabat bilan qayd etilgan sohada yanada yuksak marralarni qo‘lgakiritish, yangi cho‘qqilarni zabt etish, yangi marralarni belgilash sportchilarningasosiy vazifasi hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Fzbekistonning barcha hududlarida sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy talablarga javob beradigan sport infratuzilmasini

shakllantirishni muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berdi. Hududlarda olimpiya sport majmualari va boshqa sport inshootlarini foydalanishga topshirish bilan bir qatordasportning har bir turini rivojlantirish borasida ham maqsadli ishlar amalga oshirildi. Bularning barchasi sport ham o‘ta mas’uliyatli ish ekanini, sportchilarning o‘ta mas’uliyatli bo‘lishi kerakligini taqozo etmoqda. bu borada va har jihatdan o‘zlariga javob berishlari kerak. Yuqorida aytilganlarning barchasi o‘z-o‘zidan ravshan. Demak, bir qator bandlar bo‘yicha sportchilar o‘rtasida ommaviy madaniy seminarlar tashkil etish zarurati tug‘iladi. Demak, bu yerda sportchilarning bu borada o‘ta mas’uliyatli bo‘lishlari, har jihatdan o‘zlariga hisobot berishlari kerakligini ham taqozo etadi. Zamonaviy o‘qituvchidan nafaqat o‘z sohasining chuqur mutaxassisi, balki kognitiv, pedagogik va psixologik jihatdan barkamol, siyosiy va iqtisodiy bilimlar va innovasion texnologiyalarni har tomonlama biladigan, yuksak madaniyatli, o‘qituvchi unvoniga ega bo‘lishi, o‘qituvchilik darajasiga ega bo‘lishi ham talab etiladi. Kompetensiya pedagogik tushuncha, maxsus ijtimoiy qobiliyat bo‘lib, uning turli tushunchalari va ko‘p qirrali xususiyatlarini tahlil qilib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik malakasining mazmuni va tarkibiy ko‘rsatkichlarini aniqladik.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy pedagogik tayyorgarligini jismoniytarbiya va sport pedagogikasining qadriyatlari va salohiyati orqali har tomonlama takomillashtirishga qaratilgan V.V.Borisova, I.N.Resheten, M.V.Proxorova, A.A.Sidorovning ilmiy ishlaridan tashqari, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari bugungi kungacha o‘rganilmagan. Bizning nazarimizda, sport mutaxassislarining kasbiy faoliyati tizimidagi eng muhim tarkibiy qismlardan biri pedagogik komponent hisoblanadi. Masalan, qo‘shimcha ta’lim sohasida (bolalar, o‘smirlar va kattalar va boshqalar) turli toifalar bilan o‘tkaziladigan sport mashg‘ulotlarida pedagogik bilim va pedagogik mahorat kerak bo‘lib, umumiy jismoniy madaniyat muammolarini hal qilishda pedagogik usullardan foydalaniladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining mazmuni va prosessual tarkibiy qismlari zamonaviy innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tizimlashtirilgan. Bularning barchasini hisobga olgan holda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishni jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining nazariy va amaliy kasbiy tayyorgarligining eng muhim vazifasi sifatida belgilash mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot madaniyati talablariga, o‘quvchilarga axborotlarni aniq va ravon taqdim etish mahorati, hamkasblariga to‘g‘ri maslahat va taklif berishni bilishi, bahoning shaffofligini ifodalay olishi, xohish-istaklarini bildirishi, muloqotning nutqiy va nutqsiz vositalari hamda nutq me‘yorlaridan to‘g‘ri foydalanishi, muloqotda-anglash, estetik, axloqiy, kommunikativ ehtiyojlarni qanoatlantirishi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur talablar, avvalo, kasbiy-pedagogik faoliyatda o‘ta muhim bo‘lgan madaniy-kommunikativ fazilatlar – hissiy madaniyat, ta’lim oluvchilarning e’tiqodi, ularga ta’sir o‘tkazish; motivatsiya; kasbiy rivojlanish; nazariy bilim hamda muloqot tuzilishi va texnologiyasidan xabardorlik (ularga ijodiy yondashuv); suhbatdoshi ruhiyatini bilish; pedagogik hamkorlik va shaxslararo o‘zaro ta’sir; pedagogik takti egallash; pedagogik muloqot texnikasi; nutq madaniyati va muloqotning nutqsiz vositalarining ifodalanishida o‘z aksini topadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi asosida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida quyidagi ta’lim texnologiyalarini qo‘llash taklif etildi:

1. Modulli o‘qitish texnologiyasi. Modulli ta’lim texnologiyasining kontseptual qoidalari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: o‘quv faoliyatini algoritmlashtirish; modullilik tamoyili – ta’lim mazmunini alohida tugallangan qismlarga joylashtirish; bilishning barcha bosqichlarini o‘zaro uyg‘unligi va tugallanganligi; nazariy materiallarni bloklarga birlashtirish; differentsiallashtirish va individuallashtirish tamoyili; faoliyatli yondashuv: faoliyatning barcha tarkibiy qismlari (maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish, ishchi jarayon, nazorat va natijalarni baholash)ni amalga oshirish; sinergetik yondashuv: talabalarning o‘z-o‘zini tashkillay olishi va rivojlantirishi; tizimli yondashuv: dunyoni bilish tizimning kichik birliklari sifatida; o‘qituvchining talaba bilan hamkorligi tamoyili; modulda o‘quv materialini uzatishning deduktiv mantig‘i: butun umumlikdan umumiylik va alohidalikka o‘tish; ilgari boruvchi nazariy materiallarni o‘rganish; o‘quv axborotlarini jipslashtirish (umumlashtirish, yiriklashtirish, tizimlashtirish, umumiyashtirish); moslashuvchanlik (dinamiklik) – birdaniga o‘z munosabatini bildirish va ijtimoiy-pedagogik shart-sharoit (ijtimoiy buyurtma)ning o‘zgarishlariga tezlikda moslasha olish qobiliyati; dastur bo‘yicha jadallashuvning individual sur‘atini tanlab olish va o‘z-o‘zini yo‘naltira olishi; anglangan istiqbollari (motivatsiya) tamoyili.

2. Loyiha ta’lim texnologiyasi. “O‘quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo‘lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o‘quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta’lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita. Shuni qayd etib o‘tish lozimki, loyiha nafaqat bir fan (masalan, tarbiya) doirasida, balki fanlararo (bir qancha fanlarning mavzulari integratsiyasi asosida) shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Bizning tadqiqot predmetimizga tadbiquan loyiha ta’lim texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: tayyorlov (maqsadni aniqlashtirish), manbalarni tanlash, materiallarini o‘rganish va rejalashtirish, bajarish, taqdimot va refleksiya.

3. Vaziyatli ta’lim texnologiyasi. Vaziyatli tahlil (keys stadi inglizcha case – aniq vaziyat, study – ta’lim so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan o‘qitish texnologiyasi. Mazkur texnologiya muammoli ta’limdan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Tahlil etish kategoriyasi obyektning xayolan bo‘laklarga bo‘lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analiz (tahlil)ning turli tasniflari mavjud bo‘lib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilash mumkin: tizimli, korrelyatsion, faktorli, statistik va boshqalar. Analiz (tahlil)ning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

4. Vitagen ta’lim texnologiyasi. Akademik A.S.Belkin tomonidan

XX asrning so‘nggi choragida vitagen ta’limning nazariy jihatlarini ishlab chiqilgan. Vitagen ta’limning mohiyati “ta’lim jarayonida talabalarning olgan bilim va ko‘nikmalar bilan hayotiy tajribalarning bog‘liqligi” g‘oyasiga hisoblangan. Ya’ni, vitagen ta’lim nazariyasining tayanch tushunchalari sifatida hayotiy tajriba, vitagen ta’lim sifatida talqin etilgan. Vitagen ta’lim tarbiya fanini o‘qitishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash jarayoni subyektlarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish uchun eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lib, unda auditoriya va mustaqil ta’lim qo‘shilib ketadi. Sub’yekt-ob’yekt munosabatlariga golografik yondashuv katta hajmdagi materiallarni o‘zlashtirish asosida vitagen ta’limni amalga oshirishdan iborat. Vitagen ma’lumotlar xayotiy tajribaning bir necha bosqichlarini o‘z ichiga oladi; 1. Ma’lumotlar farqlanmasdan qabul qilinadi. 2. Baholovchi – filtrlovchi shaxs. 3. Qat’iy tartibga egalik – ma’lumotlar ongli ravishda eslab qolishga qaratilgan bo‘ladi.

5. Strategik ta’lim texnologiyalari. Mazkur jarayon o‘quv faoliyatining bitta yo‘nalishiga qaratilgan bo‘lib, ta’lim maqsadlariga erishish uchun qo‘llaniladigan texnologiyalarni ko‘zda tutadi. Strategik ta’lim texnologiyalari tarkibini tahlil qilish ularning quyidagi maqsadli yo‘nalishini aniqlash imkonini berdi: zamonaviy yondashuvlar asosida talabalarda familistik kompetensiyani rivojlantirish. Strategik ta’lim texnologiyalarining maqsadi talabalarni oilaga tayyorlashning barcha bosqichlarida foydalanish imkoniyatini belgilab beradi. Ularga quyidagilar kiritildi: o‘yin, kichik tadqiqotchilik, trening, interfaol ma’ruza va boshqalar.

6. Taktik ta’lim texnologiyalari. Ilmiy adabiyotlar tahlili taktik ta’lim texnologiyalarini tanlash mezonlari sifatida quyidagilarni qabul qilish imkonini berdi: a) taktik o‘quv texnologiyalarining strategik maqsadlarga mosligi; b) taktik

o‘quv texnologiyalarining o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan o‘quv

materialining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi; v) yetakchi aloqa turi; g) taktik ta’lim texnologiyalarini texnologik amalga oshirish imkoniyatlari; d) taktik ta’lim texnologiyalarining uzluksizligi (mavzuli, mantiqiy, tashkiliy).

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy o‘lchov mezonlari shaxsni rivojlantirishning ko‘proq yuqori darajasining egallaganligini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi to‘rt o‘lchov mezoni aniqlashtirildi: 1) motivatsion-qadriyatli; 2) bilishga doir; 3) jarayonli-faoliyatga doir; 4) reflektiv-baholovchi.

Aniqlashtirilgan mezonlar asosida talabalarda familistik kompetensiyani rivojlantirish darajasining ko‘rsatkichlari belgilab olindi (2-jadvalga qarang).

Mazkur yondashuv har bir mezon bo‘yicha bir darajadan boshqasiga o‘tishda o‘rganilayotgan jarayon dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Sport va estetika, sport va axloq, sport va muloqot, sport va madaniyat, sport madaniyati va shaxsning rivojlanishi – amaliyotda pedagogik madaniyat – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisi muloqotini anglab olish, tushunib yetish va integratsiyasi bir-birini to‘ldirib boradigan va ajralmas tushunchalardir. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisini shakllantirish jarayonida sportdagi go‘zallik, ya’ni uning o‘z ko‘rkamligi, gavdalanishi, pedagogik faoliyatida yuksak zavq-shavq uyg‘otishi, chuqur taassurotlar qoldirishi va unutilmas hissiyotlarni junbishga keltirishi, ayniqsa, muhim. Shunday qilib, jismoniy madaniyat o‘qituvchisining kasbiy-shaxsiy dunyosi o‘ziga xos, turli maqsad-mazmunga ega bo‘lib, u ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Eng muhimi – bo‘lajak jismoniy madaniyat

o‘qituvchilari o‘z kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishi, maktabning ijtimoiy-jismoniy madaniyati, borliq hayotiga kirib borishi hamda ularga ijodiy yondashuvidir. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchisi maktab o‘quvchilarida jismoniy kommunikativ madaniyatni shakllantirishning o‘ziga xos texnologiyalari, innovasion metodlari, eng maqbul usullari, yo‘llari, zamonaviy vositalarni izlab topishi lozim. Bunda uning kasbiy madaniyati, pedagogik axloqqa asoslangan pedagogik muloqot (muloqot qoidalari, me‘yorlari, reglamenti, mazmuni, texnologiyasi) madaniyati katta ahamiyatga ega. Bu o‘rinda pedagogik muammo tegishli pedagogik-psixologik jihatlarining ko‘rib chiqilishi va aniqlanishini talab etadi. Jumladan, shaxs individualligi; yosh va psixologik xususiyatlari; motivatsiyasi; hissiy omillari; psixologik jihatlar – sportchining chiqishini estetik jihatdan idrok etish; sport sohasidagi qadriyatli yo‘nalishlar; muloqot psixologiyasi; kasbiy etika psixologiyasi; o‘zini o‘zi kuzatish – idrok qilish – e’tibor berish – o‘z-o‘zini rivojlantirish – nazorat qilish – tarbiyalash – anglash – zamonaviylashtirish – ijtimoiylashtirish – baholash – hisobot berishning barcha turlarini qamrab oladi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirish haqida gapirganda, “shaxs” tushunchasining mohiyatiga alohida e’tibor berishimiz kerak. “Shaxs” – “tabiatni, jamiyatni, o‘zini o‘zi faol o‘zlashtiruvchi va aniq bir maqsadga yo‘naltirgan holda o‘zgartiruvchi, makon va zamonga oid yo‘nalishlar, ehtiyojijirodaviy kechinmalar, mazmundor yo‘naltirilganliklar, faoliyat darajalarini o‘zlashtirish va uni amalga oshirish shakllarining noyob, tadrijiy mutanosibligiga ega bo‘lgan insondir”. Keyingi yillarda shaxs tushunchasi turlicha izohlanmoqda: 1) “shaxs – inson, jamiyat a’zosi, ong sohibi sifatida; 2) inson, o‘zini o‘zi anglashga va o‘zini o‘zi rivojlantirishga qodir bo‘lgan, munosabatlar va ongli faoliyat sub’yekti sifatida; 3) insonni jamiyat a’zosi sifatida tavsiflaydigan ijtimoiy mohiyatli sifat, munosabat, ko‘rsatma va motivlarning barqaror tizimi”dir.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari shaxsi hissiy dunyoni faol anglashi, psixik jarayonlarining takomillashtirilishi, umumiy va maxsus qobiliyatlari, tafakkurining faol rivojlanishi, axloqning shakllanishi va rivojlanishi, dunyoqarashi, jamiyatda axloqiy jihatdan o‘z o‘rnini belgilab olishi, atrofdagilar bilan munosabatlarini belgilash davridir. Mazkur davr nazariy intellektning vujudga kelishi, muayyan darajadagi kasbiy rivojlanishi va tegishli bilim, ko‘nikma, mahorat, umumiy va maxsus qobiliyatlarini shakllantirish davri hisoblanadi. Ular jamoatchilik oldida chiqish qilish hamda atrofdagilar bilan muloqot qilishga qiziqadilar. Ular o‘zini o‘zi shakllantirish, takomillashtirish, ommaviy axborot vositasi orqali namoyon bo‘lishni xohlaydilar. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zining tashqi qiyofasini takomillashtirish, ma’naviy dunyosini boyitishga moyildirlar.

Ma’naviy-estetik va axloqiy tarbiya hamda kasbiy-shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirish bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari talabalari pedagogik muloqot estetikasiga oid tavsiyalarga juda muhtojlik sezadilar. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari shaxsi, ularning individualligi, ayniqsa, kasbiy muloqoti jarayonida quyidagilar hisobga olinadi: mizoji, xarakteri, individual xususiyatlari, shaxsiy sifatleri, qiziqishlari, idrok qilishi, qobiliyati, intellekti va h.k.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari ijodiyotida quyidagi shaxsiy omillar namoyon bo‘lishi lozim: yorqin hissiyot; ijodiy tafakkur (badiiy); harakatlar ifodaliligi;

individuallik; yangilikka intilish; o‘zini o‘zi ifodalash, aql va qalb intizomi; fuqarolik o‘zini o‘zi anglash kabilar. Tadqiqot ishimizda sport estetikasini umumiy baholash mezonlari sifatida kuch, yengillik, go‘zallik, uyg‘unlik, shakl, ritm, dinamika, ravonlik, nafislik, nazokat, ifodalilik, boshqaruvchanlik, muvozanatlanganlik, zo‘r berish, kuch va qudrat, tezlik, xatarlilik, aniqlik, vaqt hissi, texnika, strategiya, taktika, sur‘at, musobaqalashuvchanlik, o‘zini o‘zi tuta bilish, zavqlanish, estetik lazzatlanish, hissiy-estetik qayg‘udoshlik, quvonch kabi atamalar va tushunchalardan foydalandik.

“Pedagogik muloqotning kommunikativ komponenti dialog ishtirokchilarining mavqelari va vazifalarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ta’limning dastlabki bosqichlarida o‘quvchilarda o‘zaro muloqotga kirishish, o‘qituvchilar va sinfdoshlar bilan munosabat o‘rnatishga oid bilim va tajribalar yetarli bo‘lmaydi. Bu jarayonda o‘qituvchi tarixiy tajribaning tashuvchisi mavqeiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda o‘qituvchilarning o‘quvchilarga axborotlarni taqdim etishga oid tajribasini boyitish zaruriyati mavjud. Buning uchun o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot o‘rnatishga oid bilimlari va tajribalarini faollashtirish talab qilinmoqda. Pedagogik muloqot turli shakllarga ega. Bu ta’lim jarayonida pedagogning tutgan mavqei, uning shaxsiy sifatleri, bilim darajasiga bevosita bog‘liq. Pedagogika hamda psixologiyaga oid manbalarda pedagogik muloqot o‘qituvchining faoliyat uslubi bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Pedagogika fanida pedagogik uslubning bir qancha tasniflari mavjud. Pedagogik munosabat aksariyat manbalarda pedagogik muloqot tarzida talqin etiladi. Pedagogik muloqotning muhim jihati o‘quv-tarbiya jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkoniyatini yaratishga xizmat qila olishidadir”. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik madaniyatida muloqotning shaxslararo, guruhlararo va jamoaviy ijtimoiy shakllariga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

1. Shaxslararo – idrok qilish, bilish, tushunish, empatiya asosida suhbatdoshlarning bir-birini baholashi va tavsiflashi.

2. Guruhlararo – ijtimoiy guruhlar orasidagi muloqot. Guruhlararo idrok qilishning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda muloqot sub’yektlari va ob’yektlari, guruhlarning o‘zaro munosabati hamda birgalikdagi guruhlararo faoliyat turi va mazmuni inobatga olinadi.

3. Jamoaviy, jamoatchilik bilan muloqot – jamoa a‘zolarining jipslashgan, qadriyatli-yo‘naltirilgan birligi asosida quriladi. Ko‘rib chiqilgan pedagogik-psixologik yo‘nalishlar bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida sport, uning etikasi va estetikasi mavzularida kasbiy madaniyat – pedagogik muloqotni shakllantirish muhim yo‘nalishdan biri hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda ko‘p hollarda “jismoniy madaniyat” va “jismoniy tarbiya” tushunchalarini bir ma’noda ishlatish holatlari uchraydi.

Biz quyida mazkur tushunchalarni aniqlashtirib olishga harakat qilamiz. Jismoniy madaniyat ijtimoiy hayot shakllaridan biri, umumiy madaniyatning tarkibiy qismidir. Jismoniy madaniyat – inson hayot tarzining bir qismi, sog‘liqni saqlash tizimi, sport faoliyati, tana va aql birligi va uyg‘unligi, ma’naviy va jismoniy kuchlarning rivojlanishi to‘g‘risidagi bilimlar majmui. Jismoniy tarbiya – bolaning jismoniy kuchlari, jismoniy madaniyatni mustahkamlash, shakllantirishning anatomik, fiziologik va boshqa tizimlari, gigiyenik ko‘nikmalari va sog‘lom turmush tarzini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining pedagogik madaniyati, pedagogik muloqoti, umumiy pedagogika fanlari hamda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сидоров А.А., Прохорова М.В., Синюхин Б. Д. Педагогика: Учебник для студентов, аспирантов, преподавателей и тренеров по дисциплине «Физическая культура». М.: Terra спорт, 2000. -272 с.
2. Решетень Н.Н., Прохорова М.В., Фомин Ю.А. Деловые игры в подготовке специалистов по физической культуре и спорту: Методические разработки. М.: ГЦОЛИФК, 1983. -37с.;
3. Прохорова Т.Н. Теория и практика формирования творческой личности учащегося в системе художественно-эстетического образования: диссертация ... доктора педагогических наук: 13.00.01. -Москва, 2003. -301 с.;
4. Борисова Н.В. Педагогические особенности создания и внедрения системы активных методов обучения в институте повышения квалификации: Автореф дис канд пед наук. М., 1987. -23с.;